




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

YANVAR-MART 2019 YIL


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1286,6 mlrd.so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 990,7 mlrd.so'mni, o'rmon xo'jaligi 292,9 mlrd.so'mni, baliq xo'jaligida 2,9 mlrd.so'mni tashkil qildi

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Uychi (105,5%), Pop (103,3%), To'raqo'rg'on (102,4%), Namangan (102,2%), Uchqo'rg'on (101,8%), Kosonsoy (101,6%) tumanlarda hamda Namangan shahrida (101,7% ) kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 19,2%ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Namangan tumani esa 10,9% ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mingbuloq (4,8%) va Kosonsoy (5,4%) tumanlarida qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hajmi 988,0 mlrd.so'mni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 60,0 mlrd.so'mni, chorvachilik mahsulotlari 928,1 mlrd.so'mni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmning 89,1%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,3%i fermer xo'jaliklariga, 2,6%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida




Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 60,0 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,8%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,1%ni tashkil qildi.




Hosil yig'imi. 2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1,9 ming tonna sabzavot (1,7% ga ko'p) yig'ib olindi, 94,0 tonna meva va rezavorlar (9,5% ga ko'p) etishtirildi.



## 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan					
			Ferma xo'jaliklari		Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %
Sabzavot	1930	101.7	338	103.8	1543	102.9	49	67.9
Meva va rezavorlar	94	109.5	10	115.0	82	109.1	2	100.0



Sabzavot

Meva va rezavorlar

- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Fermer xo'jaliklari

## Chorvachilik





2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 928,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7%ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarininzg ulushi 93,9%ni tashkil etdi.

2019 yilning 1 aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,4%ga (jami 700,5 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 103,4%ga (223,6 ming bosh), qo'y va echkilar 105,9%ga (759,1 ming bosh), otlar 99,5%ga (6377 bosh), parrandalar 117,8%ga (4771.8 ming boshga) ko'paydi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 23,6 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,2%ga ko'p), 102,6 ming tonna sut (1,8%ga ko'p), 96,2 mln. dona tuxum (5,9%ga ko'p), 0,27 ming tonna jun (3,5%ga kam), 0,27 ming tonna baliq (5,0%ga ko'p) ishlab chiqarildi.

## Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida






■ *Tuxum (ming dona)*



■ *Baliq (tonna)*






## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 700,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar 223,6 ming boshga, qo'y va echkilar 759,1 ming boshga, parrandalar 4771,8 ming boshga yetdi. 2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 23,2 ming boshga (3,4%ga), shu jumladan sigirlar 7,4 ming boshga (3,4%ga), qo'y va echkilar 42,5 ming boshga (5,3%ga), parrandalar 720,0 ming boshga (17,8%ga) ko'paydi.

### Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




 Fermer xo'jaliklari

 Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


 Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,5%i fermer xo'jaliklari, 95,9%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 0,6%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,4%i fermer xo'jaliklariga, 96,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,3%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 41,7%i fermer xo'jaliklariga, 38,7%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,6%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


## Qoramol va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2019 yil 1 aprel holatiga




■ *Shu jumladan sigirlar (bosh)*



■ *Qo'y va echkilar (bosh)*



■ Parrandalar jami (ming boshda)




### Fermer xo'jaliklari faoliyati to'g'risida

2019 yil 1 aprel xolatiga viloyatda 9476 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib g'alla yetishtirish yo'nalishida 744 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 343 ta), paxta yetishtirish yo'nalishida 2380 ta (eng ko'p Pop tumanida 538 ta), sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'nalishida 261 ta (eng ko'p Uchqo'rg'on tumanida 70 ta), meva va rezevorlar yetishtirish yo'nalishida 4507 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 1344 ta), uzum yetishtirish yo'nalishida 671 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 289 ta), chorvachilik yo'nalishida 314 ta (eng ko'p Chust tumanida 44 ta), parrandachilik yo'nalishida 78 ta (eng ko'p Kosonsoy tumanida 24 ta), ipak qurti ko'paytirish yo'nalishida 77 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 27 ta), asalarichilik yo'nalishida 48 ta (eng ko'p Yangiqo'rg'on tumanida 10 ta), baliqchilik yo'nalishida 287 ta (eng ko'p Mingbuloq tumanida 82 ta), boshqa yo'nalishlarda 109 ta (eng ko'p Mingbuloq tumanida 33 ta) ni tashkil etmoqda.

01.04.2019 yil


Tumanlar	Fermar xo'jaliklari soni	Shundan Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha										
		G'alla yetishtirish	Paxta yetishtirish	Sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish	Meva va rezevorlar yetishtirish	Uzum yetishtirish	Chorva -chilik	Parrandachilik	Ipak qurtini ko'paytirish	Asalari ko'paytirish	Baliqchilik	Boshqa yo'nalishlar
Mingbuloq	573	5	271	21	111	21	13	4	7	5	82	33
Kosonsoy	759	179	120	19	302	42	41	24	7	1	17	7
Namangan	464	11	145	9	215	10	28	2	14	2	19	9
Norin	383	3	151	7	163	8	17	7	0	0	9	18
Pop	911	4	538	39	195	20	39	1	2	8	61	4
To'raqo'rg'on	497	0	142	6	250	56	21	4	1	5	8	4
Uychi	470	18	172	26	141	39	35	5	2	6	25	1
Uchqo'rg'on	651	8	416	70	98	6	29	7	3	2	7	5
Chortoq	1231	71	151	25	872	50	29	7	1	2	11	12
Chust	1407	99	270	8	780	128	44	7	13	7	42	9
Yangiqo'rg'on	2079	343	0	31	1344	289	15	8	27	10	5	7
Namangan sh	51	3	4	0	36	2	3	2	0	0	1	0
<b>Viloyat jami</b>	<b>9476</b>	<b>744</b>	<b>2380</b>	<b>261</b>	<b>4507</b>	<b>671</b>	<b>314</b>	<b>78</b>	<b>77</b>	<b>48</b>	<b>287</b>	<b>109</b>



2019 yil 1 aprel xolatiga 9476 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib ular tomonidan yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 82,0 mlrd.so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 0,3%ni tashkil etdi.

Hosil yig'imi. 2019 yilning yanvar-mart oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 338 tonna sabzavot (3,8%ga ko'p) yig'ib olindi, 10 tonna meva va rezavorlar (15,0%ga ko'p) etishtirildi.

2019 yilning 1 aprel holatiga fermer xo'jaliklarida 24,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 8,8 ming bosh sigir, 25,7 ming bosh qo'y va echkilar, 455 bosh ot, 1989,2 ming bosh parrandalar mavjud. 2018 yilning 1 aprel holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 4,1%ga, shu jumladan sigirlar 4,0%ga, ot 11,5%ga, parrandalar 26,7%ga ko'paydi, qo'y va echkilar soni esa 1,9%ga kamaydi.



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 69-227-84-82  
• 69-227-84-83